

SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA

Eshmurodov Olmosbek Elamanovich

**Termiz davlat pedagogika instituti "Psixologiya" kafedrası dotsenti v/b,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

eshmuradovolmosbek@mail.ru

Annotasiya: Ushbu maqolada sog'lom ijtimoiy psixologik muhit, oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda har bir millat, oila va u bilan bog'liq jarayonga alohida e'tibor qaratib, oila haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni va qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishda qadriyatlarning o'rni xaqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Oila, farzandlarning soni, nikoh yoshi, er-xotinlarning milliy mansubligi, hududiy jihatdan yashash joyini inobatga olish, ota-ona va farzandlar, oilaviy hayot tartibi, oilaviy an'analar va qadriyatlar, muloqot shakli, milliy odatlar.

Bugun biz uchun muqaddas hisoblangan oila ijtimoiy tizim sifatida «ota-ona va farzandlar», «er-xotin va qaynona-qaynola», «kelin-kuyov va ularning yaqin qarindoshlari» kabi munosabatlar majmuidan tarkib topgan bo'lib, nabiralar, kelin va quda-andalarga bo'lgan munosabatlar xarakteri tomonidan, oilaviy hayot tartibi, oilaviy an'analar va qadriyatlarga ega ekanligi, muloqot shakli, milliy odatlarga rioya etilishi jihatlaridan etnomadaniy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu jihatlar esa xalqimizda, aholida milliy xarakter, milliy temperament, milliy orzu, milliy istak, milliy g'urur, milliy sharaf, milliy e'tiqod, milliy qadriyat va milliy xotira tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Barkamol insonni shakllantirishda oila ijtimoiy institut sifatida bajaradigan vazifalarni boshqa biron bir tuzilma bajara olmaydi. Shuning uchun, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik jihatdan inson uchun oila birinchidan, yaxshi xulq namunalarini topib, ularni o'zlashtirishda o'ziga xos o'rin tutadi; ikkinchidan, yon-atrofdagilar bilan hamkorlik qilish maqsadida muloqotga kirish yo'llarini topish uchun imkon yaratadi; uchinchidan, farzandlarni mustaqil hayotga tayyorlashda turli mazmundagi axborotlarni jamlab, hayot tajribalarini o'rgatish o'chog'i sifatida xizmat qiladi.

Keyingi yillarda keng jamoatchilik va olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelayotgan masalalardan biri shaxs va oila, oilaviy munosabatlar muammosidir.

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi milliy farovonlik asosidir»[1].

Inson ma'naviyatini shakllantirishning eng maqbul maskani oiladir. Oila qaysi millatga mansub bo'lsa, o'sha xalqning ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirib, bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan an'analarni, ma'naviyatni avloddan-avlodga yetkazadi. Agarda shaxsning shakllanishida biologik, tabiiy va madaniy muhit, ijtimoiy tajriba, odamlar bilan munosabat kabi omillar muhim

ahamiyat kasb etishini inobatga olsak, bularning barchasi oilada mujassamlashgandir. Zero, shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotiy tamoyillari, ideallari, qadriyatlarini, ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila ma'naviyat qo'rg'oni hisoblanib, oila qaysi millatga taalluqli bo'lsa, o'sha millatning ma'naviyatini o'zida aks ettiradi. Sharq oilalarida tarbiyalangan farzandlar qat'iyatli, matonatli, maqsadga intiluvchan, mas'uliyatli va o'ziga nisbatan talabchanligi, mehnatsevar, do'stparvarligi bilan ajralib turadi. Ularga hissiyotlarni bir maromda tutish, mulohazalilik, sodiqlik, turli qiyinchiliklarga chidamli bo'lish, xushchaqchaqlik, har xil sharoitlarga tez moslashish xususiyatlari xosdir. Aynan shu o'ziga xosliklar majmuasi etnopsixologik xususiyatlar sifatida e'tirof etilib, sharq oilalarini boshqa millatga mansub oilalardan ajratib turadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining oila xususidagi qarashlari, fikr-mulohazalari Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Amir Temur, Alisher Navoiy singari mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Milliy psixologiya tarixida hududimizdagi ijtimoiy-psixologik fikrlar taraqqiyotida o'tmish mutafakkirlarimizning madaniy-ma'rifiy qarashlari muhim o'rin tutadi.

O'zbek oilasiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ilg'or urf-odat va an'analar asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, taraqqiy topib kelgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, «O'zbek oilasi mustabidlik zamonida ham o'zining tarixan shakllangan qiyofasini yo'qotmadi. Ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy qahramonlaridan birining «Bu xonadondan hech kim norizo bo'lib ketgan emas», deb aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam»[1].

Ma'lumki, oilaviy turmush munosabatlari oilaning o'tgan ijtimoiy tuzumlarga, hozirgi mavjud va kelajakdagi ijtimoiy hayotga bog'lanib ketganligi bilan ikkiyoqlama xususiyat kasb etadi. Barcha zamon va davrlarda, sinfiy jamiyatlarda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy va individual, sinfiy-tabaqaviy, milliy-etnik xususiyatlarga, o'ziga xos belgilariga ega jihatlari mavjuddir. Bular esa oilaviy munosabatlarning psixologik va ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-axloqiy aloqalari xususiyatlarini belgilashga asos bo'ladi.

Oila, ta'bir joiz bo'lsa, kishining hayot yo'li, faoliyati boshlanadigan eng birinchi jamoa sanalib, inson ilk bor insonni shu yerda ko'radi, u haqda tushuncha, tasavvurga ega bo'ladi. Oilada, avvalo, bola uchun eng yaqin kishilar, uning ota-onasidir. Shuning uchun ham bolaning xulq-atvori, xarakteri, odat hamda ko'nikmalari oilada shakllanadi. Chunki oila o'z a'zolari bilan uzluksiz o'zaro ta'sir etib, uning faoliyati, yurish-turishini nazorat etib boradi.

O'zbek oilalaridagi o'zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e'zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma'naviy jihatdan go'zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarini rivojlantiradigan qadriyatlar bo'lib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi.

Jamiyatda oila doim ham muhabbat asosiga qurilavermaydi. Urf-odat, sharoit taqozosi, ota-ona orzusi bilan ham oila tashkil topishi mumkin. Ota-onalar

farzandlar orqali kelajak avlodning, naslning davomiyligini ta'minlaydilar, ya'ni oilaning reproduktiv funksiyasi namoyon bo'ladi. Ota-ona har qanday sharoitlarda ham farzandlari oldidagi o'z vazifa va majburiyatlaridan voz kechishlari mumkin emas.

Oilaviy munosabatlarda, umuman ijtimoiy munosabatlarda har bir shaxs guruhdagi o'z statusi, mavqei, maqomidan kelib chiqqan holda muomala, munosabatga kirishadi.

Oila jamoa shaklidagi ijtimoiy-psixologik tuzilma bo'lganligi bois, yozuvchi romanlarida o'zbek oilasining psixologik qiyofasini tasvirlab bera olgan. Shuningdek, asarlarda o'zbek oilasidagi shaxslararo munosabatlar ierarxik tuzilishga ega bo'lib, bu guruh a'zolarining mavqeiga (statusiga), yoshiga bog'liq ravishda amalga oshirilishi aks ettiriladi[2].

Ijtimoiy psixologiyada oilaga jamiyatning asosiy yacheykalaridan biri sifatida qaraladi. Shaxs shakllanishida oiladagi muhitning ta'siri, ahamiyati yuqori ekanligi, shu bilan birga, oilada ixtiloflar, nizolarning yuzaga kelishi yoxud ijtimoiy-psixologik muhitning buzilishi shaxslararo munosabatlar xususiyatlariga ta'sir qiladigan holat va vaziyatlarga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, o'zbek xalqining oilaviy masalalar bilan bog'liq uzoq davrlar mobaynida shakllangan milliy psixologik qiyofasi o'z mazmunini turli motivlar ta'siri doirasida namoyon qilaveradi. O'zbek etnosining kundalik turmushida ham bu jihatlar kuzatiladi. Bu hol nafaqat badiiy adabiyot namunasida, balki bugungi kun real o'zbek oilasini qurish bilan bog'liq jarayonlarda ham gavdalanadi.

Oila shaxsning g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy qarashlarini shakllantiruvchi, tevarak-atrofga, dunyoga munosabatlari tizimini, ya'ni dunyoqarashi, e'tiqodi, ehtiyojlari, qiziqishlari, ideallari, motivlari, hayotiy maqsadi yo'nalishini belgilovchi jamiyatning eng kichik bo'g'ini sifatida muhimdir.

Oila ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida turli an'ana, marosim, urf-odat, rasm-rusumlarni vujudga keltirganki, bular jamiyatning rivojlanishiga, shaxsning har tomonlama, jismoniy, ma'naviy jihatdan kamolotga erishishiga, uning hayot tarziga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazib kelgan. Oiladagi sog'lom, ijobiy psixologik muhit, oila a'zolari o'rtasidagi emotsional yaqinlikdan farzandlarda ota-onaga, qarindosh-urug'larga nisbatan hurmat, mehr-oqibat singari eng yuksak, ezgu xislatlar tarbiyalanadi, insoniy fazilatlar shakllanadi[3].

Olimlarning ta'kidlashlaricha, kishining xarakteri, dunyoqarashi ijtimoiy mehnat faoliyati ta'sirida, tarbiya hamda hayot tarzining mahsuli sifatida tarkib topadi. Shaxsning yo'nalishlari-ehtiyojlari, motivlari, qiziqishlari, ideallari, ishtiyoqi xarakterning mazmunini tashkil etadi. Xuddi mana shular kishining ijtimoiy voqea va hodisalarga, jamiyatga, jamoaga, boshqa kishilarga nisbatan munosabatlari xususiyatini belgilaydi. Shaxsning dunyoqarashi, ya'ni tabiatga, jamiyatga hamda ularning rivojlanishiga bo'lgan qarashlari sistemasi yo'nalishning g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Shaxsiy motivlar esa jamiyat, sinf, jamoa tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlar, muammolar va vazifalarning shaxs (ijodkor) tomonidan o'zlashtirilishi, o'rganilishida aks etadi[4].

Umuman olganda, muayyan xalqqa, millatga xos bo'lgan badiiy adabiyot o'sha xalqning, shu bilan birga yozuvchining milliy psixologik xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki insonlarning ta'b va didlari, xarakteri, his-tuyg'ulari, intilishlari ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy shart-sharoitlarda shakllanadi, rivojlanadi. Badiiy asar mazmunida aks etgan urf-odat, axloq-odob, shaxslararo munosabatlar me'yorlariga doir tasavvur va tushunchalar xalqning ruhiy holati, kishilarning an'anaviy, etnopsixologik xususiyatlari, maishiy turmushiga oid bilimlarni, axborotlarni o'zlashtirib olishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Eshmurodov, O. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.
2. Eshmurodov, O. (2022). ҚАЙНОНА ВА КЕЛИН ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИГА ТАЪСИРИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7431>
3. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
4. Eshmurodov, O. (2023). ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР ВАРҚАРОРЛАШШУВИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АНАМИЯТИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8238>
5. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
6. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>
7. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМООПРЕДЕЛЕНИЕ И ВЫБОР ПРОФЕССИИ УЧАЩИМИСЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ЗНАНИИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>
8. М.А.Тилакова, & О. Э. Эшмурадов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1 (6), 143-149.
9. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р.Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.
10. Каршибаева Г. А., Абдуасулов Р.А.Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.